ORIF AYUPOV



Ayupov Orif (1906-2000) o‘zbek jurnalisti. Toshkent shahrida gumashta oilasida dunyoga kelgan. Yangi usuldagi “Namuna” maktabida o‘qigan (1918-1923), Toshkent erlar maorif institutida tahsil olgan (1923-1925), SAGUning pedagogika bo‘limining ikkinchi kursini tugatgan (1925-1926), Samarqand shahriga yuborilgan, u yerdan Xiva shahriga yo‘llanma berilgan. Xivada yetti yillik maktab mudiri lavozimida ishlagan (1926-1928), Xotin-qizlar maorif institutida o‘qituvchi (1928-1930), “Sharq haqiqati” gazetasi mas’ul kotibining yordamchisi (1930), Respublika radio komiteti qishloq xo‘jalik bo‘limida muharrir (1930-1935), “Qizil O‘zbekiston” gazetasida adabiy xodim (1935-1937), “Yangi hayot” gazetasida mas’ul kotib (1937-1939), “O‘zbekiston sotsialistik qishloq xo‘jaligi” jurnalida mas’ul kotib (1941), jurnal yopilgach “Tashtranssoyuz” tashkilotida madaniy-ma’rifiy ishlar yo‘riqchisi vazifasida ishlagan (1942), Mehnat armiyasida xizmat qilgan (1942-1944), Maorif komissarligi tomonidan №135 son maktabga o‘qituvchi qilib tayinlangan (1942-1946), “O‘qituvchilar gazetasi”da mas’ul kotib (1948 3 noyabrgacha), so‘ng Davlat nashryotiga o‘quv bo‘limida katta muharri (1949). NKVD tomonida 1949 yil 5 noyabrda qamoqqa olingan. SSSR DXMning Maxsus kengashi tomonidan g‘ayrisovet tashviqoti va yolg‘on xabar tarqatgan degan ayblov bilan 10 yilga mehnat tuzatish lageriga surgun qilingan. SSSR Ichki ishlar ministirligi lagerlarida, qamoqxonlarida koloniyalarida aksilinqilobiy jinoyatlari uchun ushlab turilgan mahkumlarning ishini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha Markaziy Komissiya Majlisining 1954 yil 6 dekabrda qarori bilan ish harakatdan to‘xtatilgan va DXM maxsus kengashining 1950 yil 14 oktabr hukmi bekor qilingan.